

Taomning lazzati nimadan? (Hikoya)

Aytishlaricha, bozor uzoqligidan bir piyozfurush shahar yaqinida yashovchi qassob bilan oshna tutinibdi.

Piyozfurush bozorga borishda ham, qaytishda ham qassobnikida tunab o'tarkan.

Har gal piyozfurush qassob do'stining uyida bir etak piyoz qoldirarkan, qassob esa piyozfurush do'stini saryog', sergo'sht palov va lazzatli sho'rva bilan siylar ekan. Ammo piyozfurush hamisha palov oshayotgan yoki sho'rva ichayotganida negadir:

— Bay-bay, rohatijon taomning lazzati piyozdan! — deb maqtanar ekan.

Bu so'zlarni piyozfurush har safar qayta-qayta takrorlayvergach, qassob u bergan piyozni suvda qaynatib chiqibdi.

— Bay-bay, rohatijon, — debdi qassob piyozfurush do'stining so'zlarini takrorlab piyoz sho'rvani sho'rillatib icharkan.

- Taomning lazzati piyozdan, oling!

Piyozfurush qizarib-bo'zarib ketibdi. Katta qozonda pishgan taomga o'zi qo'shgan piyoznigina maqtab, qassob do'sti qo'shgan go'shtu yog' va boshqa masalliq'larni tilga olmagani uchun qattiq izza bo'libdi, maza-matrasiz achchiq piyoz sho'rvadan bir necha qoshiq ho'plabdi-da, qassob do'stidan yashiriqcha erta saharda jo'nab qolibdi.

Shundan so'ng qassobnikida tunashdan uyaladigan, bozorga boshqa qishloqlarda qo'nib boradigan bo'libdi. Biroq dasturxon oldida: «Taomning lazzati piyozdan!» demas ekan endi piyozfurush.